

BA'ZI KONTAKT FE'LLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Najmiddinova Sevinch

SamDCHTI “Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik”

fakulteti 3-bosqich talabasi

Shermatova Nigora Isoqulovna,

SamDCHTI “Til va Tarjima” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ba'zi kontakt fe'llarinig semantic xususiyatlari, fe'llarning dinamiklik hamda zamon bilan bog'lik belgilari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Shuningdek fe'llarning aspektual ma'nolarning asosiy belgilari bilan bir qatorda ingliz fe'llining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: kontakt fe'llar, semantic belgilar, protsessuallik, predlog, beshperspektiv protses, fe'llarning dinamiklik belgilari.

Ma'lumki fe'l harakat va jarayonni bildiradi. Shunday ekan har bir fe'l leksemasining protsess semantikasini yoritish, yoki shu protsessning ma'nolari va turlari haqida gapirilganda protsess va “harakat” farqlanishi lozim. “Protsess” va “harakat” ma'nolarini farqlashda turlicha talqin qilinadi. Seliverstova O.N. “protsess” atamasi haqida fikr yuritarkan, “protsess” fazada mavjud bo'lgan ob'ektga nisbatan qo'llash to'g'ri deb hisoblaydi. Avtor protsessning faqatgina sub'ekt vazifasiga bog'liq holda “lahzalik” va “davomiylik” bo'lishi mumkin deb qaraydi [Seliverstova 1982; 116]. Bulygina T. V. esa protsessning tabiiy oqimi biror aniq natijaga olib kelishiga bog'liq holda “beshperspektiv protsess” va “rivojlanayotgan protsess” kabi turlarga ajratadi. U fe'llarning shu dinamiklik belgilaridan tashqari, yana fe'llarning zamon bilan bog'liq belgilarini ham ajratib ularni boshqariluvchan belgilarini ham aniqlaydi. Avtor “boshqariluvchan” holatlarda sub'ektning vazifasi ustunligini aytib, zamon munosabati xususiyatlariga qarab kiskik guruhlariga bo'ladi. U boshqariladigan hodisalarni “harakat” boshqariladigan protsesslarni “faoliyat” deb ataydi [Bulygina 1982; 21].

Aspektuallik doirasida va tus-zamon razryadiga oid semantik belgilarning o'zaro munosabatlarining biroz bo'lsada batafsilroq tahlilini T.G. Akimovanning tadqiqotlarida uchratish mumkin [Akimova, 1984]. U ingliz tili materiallarini tahlil qilib aspektuallikning quyidagi semantik belgilarini keltiradi: 1) ish harakatining chegarasiga yo'naltirilganligi yoki yo'naltirilmaganligi; 2) ish harakatining chegaraga yetganligi yoki yetmaganligi; 3) ish harakatning turg'unligi, yoki dinamikligi; 4) harakatning natijaliligi; 5) faktning umumlashtirilganligi; 6) harakatning ma'lum bir vaqtda sodir bo'lish yoki sodir bo'lmaslik belgisi (lokalizovannost' -

nelokalizovannosty); 7) ish harakatining ma'lum bir vaqtda sodir bo'lishligining biror narsaga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan yo'nalishda bo'lishligi [Maslov 1987; 195-209]. Bu klassifikatsiyada Yu.S. Maslov tilga olgan aspektual ma'nolarning asosiy belgilari bilan bir qatorda ingliz fe'lining o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rinib turibdi. Ayniqsa oxirgi ikki semantik ish harakatining temporal xarakteristikasiga juda yaqindir. Endi bu belgilarning realizatsiya qilinish shakllariga to'xtalsak. Ulardan birinchisi ish harakatining yo'naltirilgan yoki yo'naltirilmaganligi o'zida fe'lning ma'lum bir tusga mansub ekanligini bildiradi. Bu belgi ingliz fe'lining barcha leksik qatlamlari uchun umumiydir. Ikkinchi belgi, ish harakatining chegaraga yetish yoki yetmasligini ifodalashi progressiv – noprogressiv oppozitsiyaga asoslangan. Chegaraga yetmaslik ma'nosi asosan davomiylik zamon shakllari bilan ifodalanadi, chegaraga yetish ma'nosi esa oddiy zamon shakllar bilan ifodalanadi. Dinamiklik yoki turg'unlik belgisi ish harakatining holatiga ko'ra belgilanadi. Dinamiklik ish harakatining zamonda rivojlanishni, davomiy shakllardan foydalanishni taqozo qilsa, turg'unlik ish harakatining jarayonida, vaqtda, holatda rivojlanmasligini bildiradi. Qoidaga binoan bunday fe'llar davomiy shakllarda ishlatilmaydi. Protesslar dinamik belgi sifatida sub'ekt bilan bog'liq. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tilshunoslikda fe'l harakatni ifodalashi va holatni ifodalashiga qarab dinamik hamda statik guruhlariga bo'linadi. Fe'l prediktlarining dinamikligi “protessuallik” ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, statiklik “protessual bo'lmagan” holat ifodalovchi ma'nolar bilan bog'liqlik sifatida qarama qarshi qo'yiladi.

1. To drop-tashlamoq (o'timli)

Ne dropped his pencil- U qalamini tushirib yubordi.

2. To drop – tushmoq (o'timli)

The apple dropped on the ground- Olma yerga tushdi.

Fe'l boshqa gap bo'laklariga nisbatan murakkab, konstruktiv va grammatik kategoriyalarning semantik jihatidan turli tuman munosabatga egadir. Sintaktik konstruktsiyalardagi gap strukturasi aniqlashda markaziy o'rinda fe'l turadi. U sintaktik konstruktsiyalarning qaysi leksik ma'noli so'zlardan tashkil topganligini ifodalaydi.

Ingliz tili grammatikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ingliz tilida mavjud bo'lgan fraza fe'llarning (phrasal verbs) qo'llanilishi hisoblanadi. Mazkur fe'llar o'ziga xos birikma tashkil etishadi. Mazkur birikmalar fe'l (verb) va predlog (preposition) yoki ravish (adverb) bilan ifodalanadi.

Sub'ekt va ob'ekt munosabatida miqdoriy va sifatiy ma'nolarga kirishi, ob'ekt sifatini o'zgartirish ma'nosini bildiruvchi fe'llar: to sew, to knock, to cut, to nail, to bow, to get, to do, to gather va boshqalar. Masalan:

Ada turned from him and began kicking at the snow with her boot toe. (Frazier, 380);
-It would cut meat yet, he said (Frazier, 425).

Tilshunoslikda gapning organizatori sifatida asosiy e'tibor fe'lga qaratiladi, chunki uning semantik mohiyati yoki semasilogik o'zagi zamon va vaqt bilan birgalikda olib boriladi. Bundan tashqari fe'l, dinamik belgi sifatida qaraladi. Gapdagi qolgan bo'laklar, ega, to'ldiruvchi, hol fe'l harakati bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Gapdagi har bir bo'lak fe'l harakatini ifdalanishida, semantik farqlanishida, fe'l ma'nolarning boyishida muhim o'rin tutadi. Fe'lning leksik-grammatik ma'nosiga qarab ega vazifasidagi substant, harakat bajaruvchisi, harakat boshqaruvchisi, harakatni qabul qiluvchi bo'lishi mumkin. Shuningdek, fe'l harakati eganing holat, xarakter, usul va boshqa belgilarini ham bildirib kelishi mumkin.

Masalan: Then he closed the door, leaving her standing there (Ch. Frazier, 256);

True to Inman's signal, the door soon reopened (Ch. Frazier, 257);

Inman's mouth tightened like a cord had been pulled in him (Ch. Frazier, 257).

To'ldiruvchi fe'l harakatiga transformatsion ma'noni beradi, fe'l harakatining bajarilishi, fe'l harakatining to'la bo'lish ma'nosini bildiradi. Xullas, ingliz tilida ba'zi kontakt fe'llari kontekst konkretizatorlaridan bo'lgan predlog, o'rin payt holi vazifasidagi so'zlar va tus-zamon ta'sirida harakatning yakuniy nuqtaga yetganligini anglatrsa, re- prefiksi yordamida iterativ aspektual ma'noning ifodalanishini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акимова Т. Г. Семантические признаки в сфере качественной аспектуальности и функционирования видо-временных форм английского глагола // Теория грамматического значения и аспектологические исследования: Сб. статей / Отв. Ред. А. В. Бондарко. Л., 1984. С. 71-91.
2. Булыгина Т.В. К построению типологии предикатов в русском языке // Семантические типы предикатов. М., 1982. –С 7-85.
3. Маслов Ю.С. Перфектность // Теория функциональной грамматики. Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. Л., 1987. С. 195-209.
4. Селиверстова О.Н. Семантические типы предикатов. М. 1982. –С 94-116.